



# INNOVATION IQTISODIYOT

*Ilmiy-amaliy elektron jurnal*

**2026**

**№7**

**ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА**

Научно-практический электронный журнал

**INNOVATIVE ECONOMY**

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



# INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY  
ELEKTRON JURNAL

7-jild  
7-son  
Iyul, 2026

July, 2026  
Volume 7  
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ  
ЭКОНОМИКА  
Научно-практический  
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY  
Electronic scientific and  
practical journal

**INNOVATSION IQTISODIYOT****ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL**

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Muassis:****Qarshi davlat texnika universiteti****Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:**

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas’ul muharrir:**

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

**Texnik muharrir:**

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.***Tahririyat manzili:**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

**TAHRIRIYAT KENGASHI:****Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:**

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)  
 Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)  
 Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)  
 Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)  
 Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)  
 Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)  
 Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)  
 Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)  
 Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)  
 Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)  
 Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)  
 Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)  
 Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)  
 Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)  
 Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)  
 Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)  
 Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)  
 Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)  
 Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)  
 Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

**Tahririyat Kengashi a'zolari:**

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik  
 Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor  
 Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor  
 Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor  
 Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor  
 Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor  
 Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent  
 Erkeyeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor  
 Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent  
 Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
 Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
 Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
 Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent  
 Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
 Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
 Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent  
 Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent  
 Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
 Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
 Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent  
 Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent  
 Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent  
 Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)  
 Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)  
 Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)  
 Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

### Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Учредитель:**

**Каршинский государственный технический  
университет**

**Председатель редакционного совета:**

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

**Заместитель председателя редакционного совета:**

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,  
профессор

**Ответственный редактор:**

Н.А.Очилова, PhD, доцент

**Технический редактор:**

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в  
электронной форме и публикуется через  
официальный сайт журнала.

*Адрес редакции:*

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: [innoeconomic@kstu.uz](mailto:innoeconomic@kstu.uz)

Научно-практический электронный журнал  
«Инновационная экономика» включён в перечень  
национальных научных изданий на основании  
решения Президиума Высшей аттестационной  
комиссии при Министерстве высшего образования,  
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5  
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по  
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное  
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и  
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

#### Редакционная коллегия:

##### Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик  
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор  
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,  
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский  
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик  
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор  
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.  
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент  
(Национальный исследовательский университет  
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник  
(Российского университета дружбы народов имени  
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент  
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент  
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,  
профессор (Национальная академия наук Республики  
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор  
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский  
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор  
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского  
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент  
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент  
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем  
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский  
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

##### Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,  
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),  
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti**  
**Economy of the region and industry**  
**Экономика региона и отрасли**



# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION INFRATUZILMA XIZMATLARI: TARKIBI, O'ZARO INTEGRATSIYASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*Mardonova Go'zal Mamatqul qizi*

## УСЛУГИ ИННОВАЦИОННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ: СТРУКТУРА, ВЗАИМОСВЯЗЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

*Мардонова Гузал*

## INNOVATION INFRASTRUCTURE SERVICES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: COMPONENTS, FUNCTIONAL INTEGRATION, AND DEVELOPMENT PROSPECTS

*Mardonova Guzal*

Received: July 25, 2026 Revised: July 28, 2026 Accepted: July 29, 2026 Published: August 1, 2026

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida innovatsion infratuzilma xizmatlarining mazmuni, tarkibiy elementlari va ularning innovatsion faoliyatdagi o'rni tahlil qilingan. Universitetlarning innovatsion infratuzilmasini tashkil etuvchi ilmiy laboratoriyalar, texnologiyalar transferi markazlari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, texnoparklar, patent markazlari va venchur fondlarining funksional bog'liqligi hamda innovatsion mahsulotlarni yaratish va tijoratlashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida innovatsion infratuzilmaning rivojlanish holati baholanib, xizmatlar samaradorligini oshirish, universitet–ilm-fan–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda innovatsion infratuzilmani raqamlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion infratuzilma, oliy ta'lim muassasalari, texnologiyalar transferi, ilmiy laboratoriyalar, biznes-inkubator, akselerator, texnopark, patent markazi, venchur fondi, tijoratlashtirish.

**Аннотация:** В статье исследованы содержание, структура и функции услуг инновационной инфраструктуры высших учебных заведений. Проанализированы функциональные взаимосвязи научных лабораторий, центров трансфера технологий, бизнес-инкубаторов, акселераторов, технопарков, патентных центров и венчурных фондов, а также их роль в создании и коммерциализации инновационной продукции. Проведена оценка современного состояния инновационной инфраструктуры системы высшего образования Узбекистана и разработаны научно-практические предложения по повышению эффективности инфраструктурных услуг, развитию интеграции “университет – наука – производство” и цифровизации инновационной инфраструктуры.

**Ключевые слова:** инновационная инфраструктура, высшие учебные заведения, трансфер технологий, научные лаборатории, бизнес-инкубатор, акселератор, технопарк, патентный центр, венчурный фонд, коммерциализация..

**Abstract:** This article analyzes the content, structural components, and functions of innovation infrastructure services in higher education institutions. Particular attention is paid to the interrelationship among research laboratories, technology transfer centers, business incubators, accelerators, science parks, patent centers, and venture capital funds, as well as their contribution to innovation commercialization. The study assesses the current state of innovation infrastructure development in the higher education system of Uzbekistan and proposes practical recommendations aimed at improving the efficiency of innovation infrastructure services, strengthening university–science–industry cooperation, and promoting the digitalization of innovation infrastructure.

**Keywords:** innovation infrastructure, higher education institutions, technology transfer, research laboratories, business incubator, accelerator, science park, patent center, venture capital, commercialization.

**■ KIRISH**

Iqtisodiyotning rivojlanishi hamda bilim va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy modelning shakllanishi oliy ta'lim tizimining mazmuni va funksiyalarini tubdan o'zgartirmoqda va mazkur o'zgarishlar natijasida "Uchinchi avlod universitetlari" (University 3.0) konsepsiyasi shakllandi. Birinchi avlod universitetlari asosan ta'lim berishga, ikkinchi avlod universitetlari ta'lim bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, uchinchi avlod universitetlari ta'lim va ilmiy faoliyatni innovatsiyalarni tijoratlashtirish, texnologiyalar transferi, startaplar tashkil etish hamda universitetning iqtisodiy rivojlanishdagi ishtirokini kuchaytirish bilan uyg'unlashtiradi. Bunday universitetlarda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, intellektual mulk obyektlarini yaratish va patentlash, spin-off hamda spin-out kompaniyalarini tashkil etish, texnoparklar va biznes-inkubatorlar faoliyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. OTMlarda texnoparklar, biznes-inkubatorlar, texnologiyalar transferi markazlari hamda zamonaviy IT-laboratoriyalar kabi innovatsion infratuzilma obyektlarini barpo etish va ularning xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish strategik ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Biroq, infratuzilma obyektlarining miqdoriy o'sishi bilan birga ularning ko'rsatayotgan xizmatlari samaradorligi (tijoratlashtirish, patentlash, spin-off kompaniyalarini tuzish) o'rtasida muvozanatsizlik kuzatiladi.<sup>8</sup>

Tadqiqotning maqsadi - OTMlarda innovatsion infratuzilma xizmatlarining joriy holatini tahlil qilish, uning ilmiy-ijodiy mahsuldorlikka ta'sirini baholash va xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**■ ADABIYOTLAR TAHLILI**

Bilimlarning yangi turdagi iqtisodiyotni shakllantirishdagi muhim ahamiyati tufayli ularni iqtisodiy tizim doirasida tarqatish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu jarayon bilimlar transferi yoki texnologiyalar transferi deb ataladi. Biroq, mazkur ikki tushuncha ilmiy adabiyotlarda yagona va umumqabul qilingan talqinga ega emas. Turli tadqiqotchilar va ilmiy maktablar ushbu atamalarining mazmuni hamda qamrovini turlicha izohlaydilar. Shu sababli bilimlar transferi va texnologiyalar transferining mohiyatini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlarini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.<sup>9</sup>

Texnologiyalar transferini, shuningdek, ilmiy-texnik bilimlar va tajribani ilmiy-texnik xizmatlar ko'rsatish, texnologik jarayonlarni amaliyotga tatbiq etish hamda yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga

qo'yish maqsadida bir subyektdan ikkinchi subyektda uzatish jarayoni sifatida ham ta'riflash mumkin.<sup>10</sup>

Innovatsion jarayon tushunchasi texnologiyalar transferi bilan uzviy bog'liq bo'lib, innovatsion faoliyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayon ilmiy bilimlar, tadqiqot natijalari va yangi g'oyalarning iqtisodiy hamda ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan innovatsiyalarga aylanishini ta'minlovchi uzluksiz va ketma-ket bosqichlar majmui sifatida talqin etiladi. Boshqacha aytganda, innovatsion jarayon – bu fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratilgan yangi bilimlarni amaliyotga joriy etish, ularni mahsulot, texnologiya yoki xizmat ko'rinishiga keltirish hamda bozorga olib chiqish jarayonidir.

**■ TADDIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida 2025-yilda amalga oshirilgan islohotlar hamda universitetlarning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish holati o'rganildi. Olingan natijalar asosida innovatsion infratuzilma elementlari faoliyati baholanib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**■ TAHLIL VA NATIJALAR**

2025-yilda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda olib borilgan institutsional o'zgarishlar endilikda xalqaro reytinglar, ta'lim sifati, qamrov darajasi va inson kapitalini rivojlantirish ko'rsatkichlarida o'zining amaliy natijasini bermoqda. Xususan, mamlakatning 7 ta oliy ta'lim muassasasining QS World University Rankings, 4 ta oliygohning Times Higher Education, 59 ta oliy ta'lim muassasasining esa THE Impact Rankings reytinglarida ishtirok etishi O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 12 ta oliygohning dunyoning TOP–1000 talik universitetlari qatoridan o'rin olgani hamda O'zbekistonning Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida etakchi mavqega ega bo'lishi oliy ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish borasidagi islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi.<sup>11</sup>

Shuningdek, World Bank 2020 hisobotida universitet innovatsion infratuzilmasini beshta asosiy komponent orqali tavsiflaydi:

1. ilmiy laboratoriyalar;
2. texnologiyalar transferi markazlari;
3. biznes-inkubatorlar;
4. texnoparklar;
5. venchur moliyalashtirish institutlari.<sup>12</sup>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish [KONSEPSIYASI](https://lex.uz/tu/docs/-4545884). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/tu/docs/-4545884>

<sup>9</sup> Инновационный менеджмент; учебник для академического бакалавриата/ С. В. Мальцева [и др.]; отв. ред. С. В. Мальцева. М. Издательство Юрайт, 2017. С. 155.

<sup>10</sup> Балашов А.И., Рогова Е.М., Ткаченко Е.А. Инновационная активность российских предприятий: проблемы измерения и условия роста. - СПб.:

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Издательство Санкт-Петербургского государственного политехнического университета, 2010.

<sup>11</sup> 2025-yil davomida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalarga bag'ishlangan brifing. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. <https://gov.uz/oz/edu/news/view/112657>

<sup>12</sup> The World Bank Modernizing Uzbekistan National Innovation System (MUNIS) Project (P170206). PDF (documents1.worldbank.org)



Mazkur tasnif universitetlarda innovatsion faoliyatning butun hayotiy siklini qamrab olishi bilan ajralib turadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion infratuzilmaning har bir elementi o'zaro funksional bog'liqlikka ega. Masalan, ilmiy laboratoriyalarda yaratilgan ishlanmalar dastlab texnologiyalar transferi markazlariga o'tkaziladi. Ushbu markazlar patentlash va

litsenziyalash jarayonlarini tashkil qiladi. Keyingi bosqichda biznes-inkubatorlar ilmiy g'oyalarni startaplarga aylantiradi, texnoparklar esa ularni sanoat ishlab chiqarishiga integratsiyalash uchun zarur ishlab chiqarish va muhandislik infratuzilmasini yaratadi. Venchur fondlari esa ushbu jarayonlarni moliyalashtirish orqali innovatsion mahsulotlarning bozorda muvaffaqiyat qozonishini ta'minlaydi.

## 1-jadval

**Innovatsion infratuzilma xizmatlari tasnifi<sup>13</sup>**

| Xizmat turi                      | Asosiy vazifasi                       | Natijasi                 |
|----------------------------------|---------------------------------------|--------------------------|
| Ilmiy laboratoriyalar            | Fundamental va amaliy tadqiqotlar     | Ilmiy ishlanmalar        |
| Texnologiyalar transferi markazi | Patentlash, litsenziyalash            | Texnologiyalar transferi |
| Biznes-inkubator                 | Startaplarni rivojlantirish           | Yangi korxonalar         |
| Akselerator                      | Investitsiyaga tayyorlash             | Investor jalb qilish     |
| Texnopark                        | Innovatsiyalarni sanoatga joriy etish | Innovatsion mahsulot     |
| Patent markazi                   | Intellectual mulkni himoya qilish     | Patentlar                |
| Venchur fondi                    | Moliyalashtirish                      | Tijoratlashtirish        |

Laboratoriyalarda yaratilgan ilmiy natijalar keyingi bosqichda texnologiyalar transferi markazlariga uzatiladi. Mazkur markazlarning asosiy vazifasi ilmiy ishlanmalarni intellektual mulk obyekti sifatida rasmiylashtirish, patentlash, litsenziyalash hamda ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish mexanizmlarini shakllantirishdan iborat. Texnologiyalar transferi markazlari universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va biznes subyektlari o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. Natijada ilmiy ishlanmalar faqat akademik natija sifatida emas, balki iqtisodiy qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan ushbu bosqich ilm-fan natijalarini tijoratlashtirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Innovatsion g'oyalarni bozorga olib chiqishda biznes-inkubatorlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Biznes-inkubatorlar yosh tadbirkorlar, olimlar va ixtirochilarga o'z g'oyalarni startap loyihalariga aylantirish uchun zarur tashkiliy, maslahat, huquqiy, marketing va moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Inkubatorlar faoliyati natijasida ilmiy ishlanmalar asosida yangi innovatsion korxonalar tashkil etiladi, ularning dastlabki rivojlanish bosqichidagi tavakkalchilik darajasi kamayadi hamda bozorga kirish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Startaplarning keyingi rivojlanish bosqichida akselerator dasturlari muhim funksiyani bajaradi. Akseleratorlar innovatsion loyihalarni qisqa muddat ichida jadal rivojlantirish, biznes modelini takomillashtirish, investitsiya jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish hamda xalqaro bozorlarga chiqishga tayyorlash bilan shug'ullanadi. Mazkur bosqichda mentorlik, ekspertlik va investorlar bilan uchrashuvlar

tashkil etilishi natijasida startaplarning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshadi.

Innovatsion infratuzilmaning navbatdagi muhim elementi texnoparklar hisoblanadi. Texnoparklar innovatsion mahsulotlarni tajriba-sinov bosqichidan sanoat ishlab chiqarishga o'tkazish uchun zarur ishlab chiqarish maydonlari, zamonaviy texnologik uskunalar, muhandislik kommunikatsiyalari va logistika xizmatlari bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, texnoparklar ilmiy muassasalar, oliy ta'lim tashkilotlari, sanoat korxonalari va investorlar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirib, innovatsion mahsulotlarni sanoat miqyosida ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Natijada innovatsion ishlanmalarning iqtisodiy samaradorligi ortadi va ularning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi kuchayadi.

Innovatsion infratuzilma tizimida patent markazlari ham alohida o'rin tutadi. Ushbu markazlar intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish, patent olish, foydali model va sanoat namunalari ro'yxatdan o'tkazish hamda mualliflik huquqlarini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Intellektual mulkning ishonchli himoyasi innovatorlarning ilmiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, investorlar uchun huquqiy kafolat yaratadi va innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini mustahkamlaydi.

Innovatsion jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishida venchur fondlari hal qiluvchi moliyaviy institutlardan biri hisoblanadi. Venchur kapitali yuqori tavakkalchilikka ega bo'lgan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali ularning tijorat muvaffaqiyatiga erishishiga ko'maklashadi. An'anaviy bank kreditlaridan farqli ravishda, venchur investorlar startapning rivojlanish istiqboliga asoslangan holda investitsiya kiritadi va uning keyingi o'sishidan daromad olishni maqsad qiladi. Shu sababli venchur fondlari innovatsion

<sup>13</sup> Muallif ishlarnasi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



iqtisodiyotning eng muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

#### ■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Universitet–ilmiy tadqiqot instituti–sanoat korxonasi hamkorligini "Triple Helix" modeli asosida rivojlantirish va hududiy innovatsion klasterlarni shakllantirish;

2. Professor-o'qituvchilar va talabalarning innovatsion tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida startap menejmenti, texnologiyalar transferi, intellektual mulkni boshqarish va innovatsion marketing bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini keng joriy etish;

3. Xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishgan universitetlar tajribasi asosida innovatsion infratuzilmani boshqarishning ilg'or amaliyotlarini milliy oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish;

4. Oliy ta'lim muassasalari innovatsion infratuzilmasini raqamlashtirish orqali ilmiy loyihalar, patentlar, startaplar va investorlar o'rtasidagi hamkorlikni yagona elektron platforma asosida tashkil etish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

2. Инновационный менеджмент; учебник для академического бакалавриата/ С. В. Мальцева [и др.];

отв. ред. С. В. Мальцева. М Издательство Юрайт, 2017. С. 155.

3. Балашов А.И., Рогова Е.М., Ткаченко Е.А. Инновационная активность российских предприятий: проблемы измерения и условия роста. - СПб.: Издательство Санкт-Петербургского государственного политехнического университета, 2010.

4. 2025-yil davomida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalarga bag'ishlangan brifing. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. <https://gov.uz/oz/edu/news/view/112657>

5. The World Bank Modernizing Uzbekistan National Innovation System (MUNIS) Project (P170206). PDF (documents1.worldbank.org)

6. Mamatkul qizi, M. G. (2026). Development of Innovative Infrastructure in the Regional Higher Education System. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 7(2), 323–328. <https://doi.org/10.51699/cajitm.v7i2.1216>

7. Khamraeva Nasimovna, S. and Mardonova Mamatkul kizi, G. 2025. Theoretical foundations for the development of innovative infrastructure in the system of higher education. The innovation economy. 1, 05 (Jun. 2025).

#### Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Mardonova Go'zal Mamatkul qizi QDTU 2-kurs doktoranti / Мардонова Гузал Базовый докторант, КГТУ / Mardonova Guzal doctoral student KSTU

**E-mail:** [guzalmardonova398@gmail.com](mailto:guzalmardonova398@gmail.com)

**ORCID:** 0009-0000-0171-1056



**INNOVATION**  
**IQTISODIYOT**  
**ILMIY-AMALIY ELEKTRON**  
**JURNAL**

ISSN: 3030-315X



[t.me/kstu\\_uz](https://t.me/kstu_uz)



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225



[www.kstu.uz](http://www.kstu.uz)  
[www.ojs.kstu.uz](http://www.ojs.kstu.uz)